

Qurilish ishlari

RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **36,8** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **2,2 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar - **76,8 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi- **21,0 foiz**

Joriy yilning yanvar oyi bo'yicha viloyatda 36,8 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,2 foizni tashkil etdi va 2017 yilning yanvariga nisbatan 0,2 foiz punktga o'sgan.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 0,8 mlrd.so'mni yoki 92,0 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,0 foiz punktga kamaydi.

2018 yil yanvar oyi


Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shahrida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1,6 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati 93,6 foizni, mos ravishda, Guliston tumanida – 2,1 mlrd.so'm yoki 88,6 foizni, Sardoba tumanida - 1,0 mlrd.so'm yoki 91,6 foizni, Xovos tumanida – 3,2 mlrd.so'm yoki 90,1 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari

(mlrd.so'm)




**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2018 yil yanvar oyi uchun**



**2018 yilning yanvar-oyida hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi:**

| | <i>Jami</i> | |
|-------------------------|-------------------|-----------------------------------|
| | <i>mldr. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati, foizda</i> |
| Viloyat bo'yicha | 36,8 | 100,2 |
| Guliston sh | 15,3 | 102,7 |
| Shirin sh | 1,6 | 93,6 |
| Yangier sh | 3,1 | 108,2 |
| Boyovut | 2,3 | 102,7 |
| Guliston | 2,1 | 88,6 |
| Mirzaobod | 2,8 | 107,4 |
| Oqoltin | 0,8 | 98,1 |
| Sardoba | 1,0 | 91,6 |
| Sayxunobod | 1,9 | 95,0 |
| Sirdaryo | 2,7 | 104,3 |
| Xovos | 3,2 | 90,1 |

**2018 yilning yanvar oyida qurilish ishlari umumiy hajmida
hudularning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**




Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 41,5 % tashkil etdi, Xovos tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 8,6 % ni, Yangier shaxrida 8,5 % va Mirzaobod tumanida 7,5 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Oqoltin tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,3 % ni va Sardoba tumanida 2,7 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining mavsumining boslanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning Viloyatdaqi ulushi ham o'zgarib boradi.

Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 34,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 92,6 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 foiz punktiga pasaydi.

Joriy davrda Boyovut tumani bo'yicha jami qurilish ishlari xajmida nodavlat sektorining ulushi 73,9 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 3,3 foizga pasaydi, mos ravishda bu ko'rsatkich Mirzaobod 79,5 foizga (8,5 foiz punktga), Sirdaryo tumanida 95,8 foizga (0,5 foiz punktga) pasaydi, Yangier shahrida 100,0 foizni tashkil qildi.

Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
G.Muxraximova
(0371) 230-86-27